

JAMIYATDAGI SOTSIO-MADANIY NORMALAR

Xasanova Marjona Doniyorovna

doniyorovnamarjon@gmail.com

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti sotsiologiya yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sotsio-madaniy normalar, ularning jamiyat hayotini tartibga solishdagi o'rni, globallashuvda yuz berayotgan o'zgarishlar va transformatsiya jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, O'zbekistondagi sotsio-madaniy normalarning shakllanishi va tarixiy-madaniy omillarni modernizatsiyaga ta'sirlari talqin qilinadi.*

Kalit so'zlar: *sotsio-madaniy normalar, raqamli madaniyat, globallashuv, axloqiy me'yorlar, jamiyat, modernizatsiya.*

KIRISH

Jamiyatning har bir ijtimoiy tizimi o'z faoliyatini barqaror va muayyan tartib asosida yuritishi uchun qoidalar, mezonlar hamda normalar ishlab chiqqan, bu normalar jamiyat a'zolarining xatti-harakatini, bir-biriga bo'lgan munosabatlarini va xulq-atvorini tartibga soladi va ular insonlarning qadriyatlari, urf-odatlarini va ana'nalarini me'yoriy tizimga ham keltiradi. O'zbekiston jamiyatida sotsio-madaniy normalar oldin tarixiy ana'nalar, diniy qadriyatlar shaklida yuzaga kelgan va hozir zamonaviy modernizatsiya orqali shakllanmoqda. Zamon rivojlanishi bilan birga migratsiya, raqamli madaniyat ham kirib keldi. Texnologiya taraqqiyoti jamiyat rivojiga ham hissa qo'shdi va buning har bir sotsio-madaniy normalarga ta'siri bo'ldi, ta'sir sababli normalarda ham yangilikka yuz tutyapdi.

Sotsio-madaniy normalarning bir qator turlari mavjud, ular ana'naviy, axloqiy, huquqiy, diniy va rasmiy bo'lmagan normalardir. Sotsio-madaniy normalar doim jamiyat barqarorligini muvozanatda saqlash orqali, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kelishmovchiliklar va janjallarni oldini oladi. Shuningdek, ular insonlarning ijtimoiy birdamligini yanada mustahkamlaydi. Normalar ijtimoiy tizimning ajtalmas qismi bo'lib kelmoqda. Axborot texnologiyalari va migratsiya jarayonlari rivojlangani sari normalar ham jarayonlarga moslashib bormoqda, natijada internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali raqamli madaniyat paydo bo'ldi.

Metodlar: Malinovski jamiyat normalarini tushunish uchun «ishtirokchi kuzatuv» metodini ishlab chiqqan. [12,49] U jamiyatning ichidan, aholi bilan odatiy tarzda yashab, urf-odatlarni va ijtimoiy normalarni bevosita kuzatish



orqali o'rganish kerakligini isbotlagan. Bu metodni ishtirok etish va kuzatish orqali qo'llash mumkin, ya'ni tadqiqot obyekti bilan birga yashagan holda, ularning kundalik hayotiga amal qilish va urf-odatlarini amalda sinab ko'rgan holda ishtirok etish. Kuzatish esa masofani saqlagan holda tashqaridan kuzatib, tahlil qilish. U tropik sharoitda mahalliy aholi ichida bir necha yil bo'lgan, ammo qisqa muddat unga normalarni chuqur tushunib yetishiga imkon yaratib bermagan, u tilni o'rganmasdan normalarning asl ma'nosiga yetib bo'lmasligini aytadi, til – madaniyatga kirish eshigidir.

Metodlar normalarni kengroq o'rganishga va chuqurroq yondashishga imkon yaratadi. Faqat tashqaridan kuzatish orqali normalarni anglab bo'lmaydi, chunki u tashqaridan ko'ringanidan murakkabroq. Jamiyat normalarini kuzatish va o'rganish ko'p vaqtni talab qiladi va uni bir odam yolg'iz o'zi kuzatib o'rgana olmaydi.

Adabiyotlar tahlili: Adabiyotlarda sotsio-madaniy normalar ilmiy o'rganilishi sotsiologiya, antropologiya, psixologiya va madaniyatshunoslikda keng tarzda yoritilgan. Dyurkgeym sotsial normalarni « jamiyatdagi jamoaviy ongning tartibga soluvchi me'yoriy tizim» deb ta'riflab o'tib ketadi. [11,79-80] U normalarning barqarorligi jamiyatning birdamligiga bevosita ta'sir qilinishini isbotlaydi. Bundan tashqari, uning «o'z joniga qasd qilish» dagi tadqiqotlari sotsial normalarning zaiflashishi anomiya holatini keltirib chiqarishini ilmiy ravishda ko'rsatib beradi. [4,200-205] Anomiya – jamiyatning normativ tizimini izdan chiqarilishi va odamlar xulqini yo'naltiruvchi aniq ijtimoiy me'yorlar buzilgandagi holati.

Jamiyatning keskin o'zgarishlari normalarga ham ta'sir ko'rsatadi, natijada odamlar nimaga intilishni, qanday yashashni, qaysi me'yorlarga amal qilishni bilmay qoladi va o'z maqsadini ham anglolmay qoladi. Ko'pincha iqtisodiy inqirozlar, davlatdagi urushlar, migratsiya jarayonlari va globalizatsiya ham anomiyaga olib keladi. Ijtimoiy me'yorlar tizimining barqaror emasligi va yangi sharoitga mos keluvchi normalar to'la-to'kis shakllanmaganligi normalar muvozanatini yo'q qiladi. Oilaning zaiflashuvi, diniy tartiblarning pasayishi, huquq tizimining sustligi ham qattiq ta'sir o'tkazadi. Malinovski madaniy normalarni ijtimoiy ehtiyojlar mahsuli deb talqin qilgan. Uning fikricha, har bir normalar tizimi jamiyatning yashash, tinchlik, mehnat va tartibni saqlashga xizmat qiladi.

Ana'naviy sotsio-madaniy normalar avloddan avlodga o'tib keladi va xulq-atvorni tartibga soluvchi me'yoriy tizim. Dyurkgeym bu normalarni ijtimoiy faktlarida shunday deydi: «Ular individ ongidan ustun turadi va tashqi majburlovchi kuchga ega». [1, 20-58] Ular jamiyatni ko'pincha rasm-rusumlar orqali tartibga soladi, ya'ni nikoh marosimlari, to'ylar va Navro'z, hayit kabi



bayramlar. O'zbek jamiyatida, asosan, ana'naviy norma markazida oila instituti turadi, chunki ana'nalar oilada shakllanadi va farzandlarga yoshligidan kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lish, har bir ishda ma'suliyat, o'ziga bo'lgan ishonch va iqtisodiy birliklar o'rgatiladi.

Axloqiy normalar – ijtimoiy tartibning ma'naviy negizi hisoblanadi. Individdning o'z ichki axloqiy normalari, shaxs o'z-o'zini nazorat qila olishi natijasida shakllanadi, ya'ni vijdoniylik, ma'suliyat, adolat me'yorlari. Bu Zigmund Freydning psixanalitikasida «superego» darajasida namoyon bo'ladi, [2, 25] unda shaxs xatti-harakatini ichki qat'iyati bilan tartiblaydi. Har bir individda ichki axloqlarga bo'ysunish va ularni o'z qarashlari, taassurotlari orqali boshqarish mavjud. UNESCO 2019-yilda «Global Values Survey» da axloqiy normalar maktabda va oilada qanday bolishi bo'yicha tahlillar o'tkazadi, unga ko'ra, axloqiy tarbiya kuchli bo'lgan mamlakatlarda o'g'irlik, jinoyat, korrupsiya va axloqiy buzilish holatlari 30-40% ga kam uchrashini aniqlaydi. [3]

Diniy normalar – bu muqaddas deb tan olingan e'tiqod va amallar orqali xulq-atvorni belgilaydigan me'yorlar. Odatda diniy me'yorlar ilohiy manbalardan kelib chiqib shakllanadi va e'tiqod talabiga ko'ra bajariladi, ular ko'pincha jamoaviylik va ijtimoiy guruhlar tomonidan mustahkamlanadi, me'yorlar esa turli xil diniy marosimlar orqali ifodalanadi va ular shaxs xulqining eng asosiy ma'naviy nazoratchisidir. Har bir dinda o'ziga asoslangan holda diniy marosim normalari ham mavjud. Jumladan, Xristianlikda Baptizm, ya'ni suvga cho'qintirish, Zardushtiylikda olovni poklik ramz sifatida hurmat qilishlari, Buddizmda esa qayta tug'ilish kabi marosim normalari mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Islomning esa beshta asosiy amali mavjud, bular: namoz, ro'za, zakot, haj va kalima, shu yuzadan nikoh va oila ham muqaddas.

Dyurkgeym o'zining «O'z joniga qasd qilish» asarida shunday deydi: «Diniy, axloqiy normalar mustahkam bo'lgan katolik jamoalarida o'z joniga qasd qilish ko'rsatkichlari protestantlarga qaraganda past bo'ladi».[4, chapter 2] Aslida ikkala din vakillarida ham o'z joniga qasd qilish gunoh hisoblangan, ammo farq bunda emas, katoliklik birgalik, kollektiv hayot va ijtimoiy nazorat bilan shaxsni jamoa bilan bog'lab tursa, protestantlarda esa erkinlik kuchliroq, natijada shaxsiy ong va individualizm ustun chiqadi, bu esa egoistik xavfini oshib ketishi olib keladi.

Huquqiy sotsio-madaniy normalar – ijtimoiy tajribaga asoslangan holda shakllangan, davlat tomonidan rasmiy tan olingan va qonuniy kuchga ega bo'lgan ijtimoiy me'yorlar. Konstitutsion normalar jamiyatdagi inson huquqlarini, davlat tuzilishini, erkinlik va tenglikka asoslanadi. Fuqarolarning



huquqiy normalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, shaxsiy mulk, nikoh, meros kabi madaniyatlar sotsio-madaniy normalar bilan bog'liq.

Shaxsiy mulk fuqaroning mustaqil tarzda o'zi erishgan narsasi hisoblanadi, masalan, uy-joyi va transporti, fuqaro shaxsiy mulkiga egalik qilish huquqiga ega bo'ladi. Nikoh qurishda, turmush qurayotgan shaxslarning o'z vazifalari, huquqlari va jamiyat tomonidan belgilangan qonunlarga asoslanishi. Oila kodeksida nikoh yoshi, nikohning FHDYo organlaridan ro'yxatdan o'tkazish, bo'g'usi er-xotinning huquq va majburiyatlaridan biridir, nikohning rasmiy bo'lishi davlat tomonidan tan olinadigan yagona shakl hisoblanadi. [5,13-15-modda] Meros normalari esa u vafot etgan shaxsning mulki farzandlari yoki yaqin qarindoshlariga qanday tartibda o'tishi to'g'risidagi huquqiy me'yor, birinchi navbatdagi merosxo'rlari, turmush o'rtog'i, farzandlari va ota-onasi. Meros huquqiy jamiyatdagi mulkiy tabaqalanishni barqarorlashtiradi va oila institutini yanada mustahkamlaydi.

Rasmiy bo'lmagan sotsio-madaniy normalar barcha normalardan farq qiladi, ular jamiyatdagi urf-odatlar, ana'nalar, odob-axloq, jamoaviy me'yorlarni barchasini qamrab olgan holda, asosan, ma'lum bir qonunga asoslanmagan, erkin holda harakat qilish va omma orqali shakllangan odatlar normasi. Gipotezalar va fonetik xulq me'yorlarini bunga misol bo'la oladi, salomlashish odobi, har bir inson o'z erkinligidan kelib chiqqan holda salomlashishi, insonlardan xol-ahvol so'rashi mumkin, hech bir qonunda bu qoida sifatida keltirilmagan, faqatgina insonlarda odatiy ana'na sifatida shakllanganiga guvohi bo'lishimiz mumkin. Bundan tashqari, oilada erkak va ayolning rollari ham rasmiy tarzda qonunda belgilanmagan, bu norma ham madaniyat orqali shakllangan.

O'zbekistondagi sotsio-madaniy normalarning shakllanishi va rivojlanish tarzi. O'zbekiston hududida ilk bor milloddan avvalgi I ming yillikda shakllangan Zardushtiylikning sotsio-madaniy normalar chuquq tarzda bo'lgan va bugungi kungacha undagi normalar mahalliy aholida saqlanib qolgan, Navro'z bayrami ham Avestodan meros bo'lib qolgan, poklik marosimlari, uyni, hovlini toza tutish, olov, suv, yer muqaddasligi.

VIII asrdan Islom ta'limoti kirib keldi, u O'zbekistondagi normativ tizimni eng kuchli o'zgartirgan omil sifatida qaraladi, hatto buni allomalarimiz Buxoriy, Termiziylar ham o'z meroslarida tasdiqlab ketgan. Islomdagi asosiy normalar: halol-harom qoidalari, nikoh, mulk huquqi, ota-onani ulug'lash, zakot va adolat. O'zbek xalqi va madaniyati uchta madaniy qatlamdan iborat: turkiy, fors-tojik, arab-islomiy.

Turkiy qavmdan o'zlashtirilgan axloqiy normalari: vafodorlik, bahodirlik erksevarlik o'zbek xalqidagi xarakterning elementlari hisoblanadi. Fors-tojik



madaniy merosi orqali ilk marotaba forsiy sivilizatsiya O'zbekistonga adabiyot, shaharlashish va davlat boshqaruvi madaniyatini, normalarini kiritgan. Arablar orqali Islom huquqi, savdo madaniyati va ilm-fan rivojlangan. Milloddan avvalgi II asrdan Buyuk Ipak yo'li O'zbekiston hududida jahon sivilizatsiyalarining chorrahasiga aylangan, bu orqali mamlakatimizga kirib kelgan normalar: savdo odoblari, halol muomala madaniyati, ko'p tillilik, hunarmandchilik shahar hayoti qoidalar va mehmondo'stlik.

Sobiq Sovet davri O'zbekistonning sotsial tizimini tubdan o'zgartirib yubordi, bu davrda ana'naviy va yangi davlat normalari birgalikda kurashib, murakkab dual madaniyatni yuzaga keltirgan. Diniy marosimlar taqiqlanganiga qaramasdan, bu davr orqali kolxoz-sovxoiz tizimi tufayli yangi mehnat normalari yaratildi va o'zbek jamiyatida ilmiy fikrlash kengaydi. Endi mustaqillik davridagi milliy tiklanish vaqtiga qaytib keladigan bo'lsak, bu davrda O'zbekistonda sotsio-madaniy normalar yangi boshqichni boshidan o'tkazdi. Milliy va diniy normalarini qayta tikladi, huquqiy modernizatsiya va global madaniy ta'sir yuzaga keldi.

Mustaqillikdan keyin esa mamlakatimizda sotsio-madaniy normalar sezilarni darajada yangilandi. Bozor, savdo-sotiq iqtisodiyotining rivojlanishi, gender tenglikning siyosiy kuchayishi, ta'lim va texnologiyalarning modernizatsiyasi va yoshlarning madaniyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. O'zbekiston Yoshlar agentligining 2023-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillar texnologiya taraqqiyoti sababli, yoshlar orasida internet madaniyati ham kuchayganiga guvoh bo'lamiz, global pop-madaniyatining ham ta'siri ortmoqda. [10] Ana'naviy institutlar bilan munosabatlar ham qayta yangicha uslubda shaklga ega bo'ldi.

Raqamli transformatsiya davri ham o'z yangiliklari va sotsio-madaniy normalari bilan kirib keldi. Raqamli xizmat turlari shakllandi, ijtimoiy tarmoqlar orqali onlayn ta'lim avj oldi, bularning barchasi yangi normalar. Odamlar orasida onlayn muloqot madaniyati rivojlanishi, raqamli etiket – internet va raqamli muhitdagi ma'suliyat, hurmat, xulq-atvor qoidalarini shakllantirdi. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tizimlari vujudga keldi, kiberxavfsizlik me'yorlari kuchliroq himoyani shakllantirdi. Yashash tarzimiz, muhit rivojlangani sari jamiyatimizdagi sotsio-madaniy normalar ham rivojlanishga qarab intilib, yangilanib bormoqda.

Muhokama va natijalar. Jamiyatdagi sotsio-madaniy normalar – shaxslarning jamiyatdagi moslashuvchanligini ta'minlaydi va o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Bu normalar shakllanishi jamiyatning tarixiy rivojlanishi, madaniy merosi, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi va zamonaviy globallashtirish jarayonlari bilan ham bog'liq. Dyurkgeym aytganidek, normalar



ijtimoiy bo'shliq va anomiyani oldini oladi, normalarsiz jamiyatda esa tartib bo'lmaydi. Bergen va Luckmann normalar orqali shaxs jamiyat tomonidan qurilgan haqiqatlarni o'zlashtiradi deydi. Haqiqatdan, jamiyatdagi sotsio-madaniy normalar tufayli jamiyat tizimini va undagi qonun-qoidalarini anglab yetishimiz mumkin.

Ana'naviy sotsio-madaniy normalar ham jamiyatning ijtimoiy strukturasida muhim o'ringa egaligiga guvoh bo'ldik. Axloqiy sotsio-madaniy normalar jamiyatning ma'naviy poydevori desak adashmagan bo'lamiz, ular shaxsning axloqiy me'yorlar jamiyatni kuchli barqarorlik tomon yo'naltiradi. Diniy normalar jamiyatdagi ma'naviy hayotni belgilab beradi, shu bilan birga ma'naviy ozuqa va tarbiya ham bo'la oladi. Huquqiy sotsio-madaniy normalar shaxslararo munosabatlarni davomiyligini kuchaytiradi, jamiyatdagi adolat, ijtimoiy tartib va xavfsizlikni ta'minlaydi. Bu normaning muhim vazifalaridan biri: jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni mustahkam tarzda shakllantirishdan iboratdir. Huquqlarning rasmiy talab kuchi va normalarning ijtimoiy bosimi birgalikda, fuqarolarning qonunga itoatkor bo'lishlarini va jamiyatga ma'suliyatli yondashishlarini, boshqalar huquqlarini ham hurmat qilishlarini ta'minlaydi. Rasmiy bo'lmagan sotsio-madaniy normalar esa davlat tomonidan ma'lum bir qonunga asoslanmagan holda, ammo kundalik hayotni boshqarishda kuchli ijtimoiy ta'sirga ega bo'lgan qoidalar. Ular ijtimoiy bosim orqali jamiyat hayotini tartibga soladi.

O'zbek jamiyatidagi normalar, avvalambor, tarixiy qatlamlar orqali yuzga kelgan. Rasmiy va norasmiy bo'lgan normalar o'zbek jamiyatida parallel holda keladi, bu esa normalarning murakkab tizimdaligini, ko'p qatlamli tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi. Anomiya xavfini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Hozirgi kunda, ayniqsa, yoshlar internet, iqtisodiy-madaniy bosim kontekstida, bu esa normalarni boshqarishni kuchaytirish zarurligini bildiradi.

Xulosa. Sotsio-madaniy normalar jamiyatning barqarorligini, madaniy davomiyligini, o'zaro ijtimoiy ta'sir jarayonlarining mexanizmidir. Ularni jamiyat boshqaruvida qadimiy davrdan qo'llab kelishgan va hozirgi kunga kelib ham o'z kuchini yo'qotmagan, zamonning rivojlanish sari intilishida sotsio-madaniy normalardan foydalanish hozirgacha ham jamiyat uchun eng samarali usul va shu boisdan ham taraqqiyot bilan birga yangilanib, o'sib bormoqda. Hattoki, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ham eng qulay vosita sifatida saqlab qolinmoqda.

Bugungi hayotimizda texnologiya rivoji sababli migratsiya, globallashuv va raqamli texnologiyalar ham taraqqiyot cho'kkisi tomon oshiqmoqda. Ular O'zbekistonning sotsio-madaniy tizimini dinamik o'zgaruvchan, ochiq va polimadaniy yo'nalishga burmoqda. Bu jarayonlar jamiyatni



modernlashtirishga, iqtisodiy imkonlar yaratilishiga yo'l ochmoqda, madaniy ko'lamni ham kengaytirmoqda, shu qatorda zamonaviy axloqiy, huquqiy normalarni ham keng shakllantirilishga e'tibor qaratilmoqda. Hozirga kelib O'zbekiston ijtimoiy rivoj, ana'naviy meros va global zamonaviylikka tayangan holda shakllanib, rivojlanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dyurkgeym, E. (1895). Les Regles de la methode sociologique. France 170p.
2. Freyd, Z. (1923). The Ego and the Id. 77p.
3. UNESCO. (2019) Research, «Global Values Survey».
4. Dyurkgeym, E. (1897). Suicide: A Study in Sotciology. London; Routledge. 480p.4
5. Oila Kodeksi. (1998) 13-15-moddalar.
6. Ahmedov, B. (2015). Markaziy Osiyo madaniy merosi: sotsiologik tahlil. Toshkent: Fan.
7. Abdullayev, N. (2018). O'zbekiston jamiyatida an'ana va modernizatsiya dialektikasi. Toshkent: Ma'naviyat.
8. Esanov, J. (2020). Islomiy qadriyatlar va yoshlar identiteti: sotsiologik tahlil. Toshkent islom universiteti nashriyoti.
9. Rasulov, O. (2021). Raqamli madaniyatning ijtimoiy normalarga ta'siri. O'zbekiston Sotsiologiya Jurnali.
10. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar agentligi. (2023). Yoshlarning ijtimoiy kayfiyati va qadriyatlari bo'yicha sotsiologik tadqiqot. Toshkent.
11. Dyurkgeym, E. (1893). The devision of labour in society. 352p.
12. Malinovski, B. (1922). Argonauts of the Western Pacific. 519p.

